



II. MINTAQAVIY IQTISODIYOT

MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHNI RAG‘BATLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirova Mohinur Bahodir qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕХАНИЗМОВ СТИМУЛИРОВАНИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

Кодирова Мохинур Баходир кизи

IMPROVING MODERN MECHANISMS FOR STIMULATING REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT

Qodirova Mohinur Bahodir qizi

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirishning zamonaviy mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan. Hududlarning barqaror iqtisodiy o‘rinishini ta’minlashda investitsiyalarni jalb etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, klaster yondashuvi, infratuzilmani modernizatsiya qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanishning ahamiyati asoslangan. Shuningdek, O‘zbekiston hududlari, xususan, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, hududiy



iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va iqtisodiy salohiyatdan samarali foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy o'sish, investitsiyalar, innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot, klaster, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish.

Globalashuv, raqamli transformatsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish masalasini dolzarb etmoqda. Mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning samaradorligi investitsion faollik, innovatsion salohiyat, infratuzilma, inson kapitali va institutsional muhit kabi omillarga bevosita bog'liq. Shu sababli zamonaviy sharoitda hududlarni rivojlantirishda kompleks va differensial yondashuvdan foydalanish muhim hisoblanadi.


Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirishda bir nechta asosiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi muhimligini ko'rsatadi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot boshqaruv samaradorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va biznes muhitining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Innovatsion rivojlanish esa yangi texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdorligini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi. Klaster yondashuvi korxonalar, ilmiy markazlar va davlat institutlari o'rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirib, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshiradi.

Shuningdek, sanoat zonalari va maxsus iqtisodiy hududlar investitsion jozibadorlikni oshirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish hamda bandlikni ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi. Infratuzilmani modernizatsiya qilish transport, energetika va logistika tizimlarini rivojlantirish orqali hududlararo iqtisodiy aloqalarni kuchaytiradi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish esa resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli ekologik-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Inson kapitalini rivojlantirish



mazkur mexanizmlarning samarali ishlashini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston hududlari bo'yicha tahlil shuni ko'rsatadiki, 2025-yilda hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjud. Xususan, Toshkent shahrida YAHM 367,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko'rsatkich 98,8 trln so'mni tashkil etgan va iqtisodiy o'sish sur'ati 6,8 foiz bo'lgan. Qashqadaryo iqtisodiyoti asosan yoqilg'i-energetika kompleksi, gaz-kimyo sanoati va qishloq xo'jaligiga tayanadi. Shu bilan birga, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish va xizmatlar sektorini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Qashqadaryo viloyatining kelgusidagi iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash uchun gaz-kimyo mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, agro-sanoat klasterlarini kengaytirish, yuqori qo'shilgan qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot elementlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu yo'nalishlar hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



1-rasm. O‘zbekiston hududlarida YAHM hajmi, 2025-yil.

Hududlar kesimida yalpi hududiy mahsulot hajmi, trln so‘m.

2025-yilda O‘zbekiston hududlari o‘rtasida YAHM hajmi bo‘yicha sezilarli tafovut mavjud. Toshkent shahri 367,2 trln so‘mlik YAHM bilan yetakchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida ushbu ko‘rsatkich 98,8 trln so‘mni tashkil etgan. Qashqadaryoning respublika YAHMidagi ulushi 5,3 foiz, iqtisodiy o‘sinh sur‘ati esa 6,8 foizni tashkil etgan. Bu hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarish va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijasida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish mexanizmlarini alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq kompleks tizim sifatida shakllantirish zarurligi aniqlandi. Hududlarning barqaror iqtisodiy o‘shishini ta‘minlash uchun raqamlashtirish, innovatsiyalar, investitsiyalar, klasterlashuv, infratuzilmani modernizatsiya qilish va inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishlarini uyg‘unlashtirish lozim. Shuningdek, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida differensial hududiy siyosatni kuchaytirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish, texnopark va startap ekotizimini kengaytirish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Qodirova Mohinur Bahodir qizi – Qarshi davlat texnika universiteti 2-bosqich magistranti / Кадирова Мохинур Баходир кизи – студентка 2 курса магистратуры Каршинского государственного технического университета / Kodirova Mokhinur Bakhodir kizi – 2 nd year master’s student, Karshi State Technical University



e-mail: mohinurbahodirovna9@gmail.com

ORCID: ■ 0009-0005-7262-233X

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Krugman P. *Geography and Trade*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1991. – P. 12–45.
2. Porter M.E. *The Competitive Advantage of Nations*. – New York: Free Press, 1990. – P. 73–110.
3. Romer P.M. Endogenous Technological Change // *Journal of Political Economy*. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. 71–102.
4. Barro R.J., Sala-i-Martin X. *Economic Growth*. – New York: McGraw-Hill, 2004. – P. 85–130.
5. United Nations Environment Programme (UNEP). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi, 2011. – P. 20–58.
6. G‘ulomov S.S. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020. – B. 34–79.
7. Vahobov A.V. *Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish*. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019. – B. 52–96.
8. Abdurahmonov Q.X. *Inson taraqqiyoti va inson kapitali nazariyasi*. – Toshkent: Fan, 2020. – B. 41–88.

